

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIJ TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN DAVLAT VA
HUQUQ ASOSLARI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining o‘rta maxsus va kasbiy ta‘lim tashkilotlarida pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentiga muvofiq ishlab chiqildi. Hujjat davlat va huquq asoslari fani o‘qituvchilarining bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholash uchun qo‘llanadigan test sinovlarining mazmuni, tuzilmasi va baholash mezonlarini belgilaydi.

Spetsifikatsiya test topshiriqlarining mazmuni, tuzilmasi, baholash mezonlari, test topshiriqlarining shakli, kognitiv darajalari hamda baholash jarayonini tashkil etish tartibini belgilab beradi.

Mazkur hujjat test topshiriqlarini ishlab chiqishda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi hamda baholash jarayonining shaffofligi, adolatliligi va ilmiy asoslanganligini ta‘minlashga qaratilgan.

I. Umumiy tamoyillar

Baholashning asosiy maqsadi davlat va huquq asoslari fani o‘qituvchilarining fan bo‘yicha nazariy bilimlari hamda amaliy ko‘nikmalar faoliyatini tashkil etish kompetensiyasini baholashdan iborat. Baholash natijalari o‘rta maxsus va kasbiy ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlariga malaka toifasini berish jarayonida qaror qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

II. Me‘yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi

Davlat va huquq asoslari fani o‘qituvchilari uchun mutaxassislik fanidan jami 40 ta test topshirig‘i taqdim etiladi va umumiy test topshirig‘ini bajarish uchun ajratilgan vaqt 80 daqiqa etib belgilanadi. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to‘g‘ri javobni talab qiladigan (Y1), moslashtirishni talab qiladigan (Y2) va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari (Y3)*) foydalaniladi. Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko‘nikmalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan.

IV. Test tuzilmasi

Test sinovi davlat va huquq asoslari fanining asosiy mazmun yo'nalishlarini qamrab oladi. Xususan, test topshiriqlari shaxs, jamiyat, davlat va huquq munosabatlari, huquq sohasiga oid bilim hamda ko'nikmalarni baholashga qaratilgan. Test topshiriqlarining mazmuni umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari, amaldagi o'quv dasturlari bo'yicha metodik talablar asosida shakllantiriladi.

Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1. Davlat va huquq (1–13-savollar)		
Shaxs, jamiyat, davlat va huquq	–shaxs, jamiyat, davlat va huquq munosabatlari(tushunchalarini)ni aniqlay olish; –davlat (shakllari, funksiyalar) va huquq bilan bog'liq ma'lumotlarni to'g'ri ajrata olish; – axloq va huquq, huquq normasi, manbalari va tarmoqlarini bir-biridan farqlay olish; – huquqiy munosabatlarni tarkibiy qismlarini aniqlay olish; – huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik turlarini aniqlash; –voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlarini tushunish; –voyaga yetmaganlarning javobgarlikka tortish asoslarini aniqlay olish; –berilgan vaziyatlarda qaysi huquqiy norma qo'llanishini to'g'ri tanlay olish; – faktlarni aniqlash, atama va qoidalarni amalda qo'llash, taqqoslash, huquqiy munosabatlarni tahlil qila olish.	13
2. Konstitutsiyaviy huquq asoslari (14–20-savollar)		
Konstitutsiya va huquqiy davlat	–Konstitutsiya va huquqiy davlatning belgilarini farqlay olish; –O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinish jarayonlarini aniqlay olish; –O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bo'limlari, boblari va ularga tegishli qoidalarni aniqlash, ushbu qoidalarni vaziyatlarda to'g'ri qo'llash, tahlil qila olish; –O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini shuningdek, fuqarolik jamiyati, davlat hokimiyati tizimini aniqlash, taqqoslash, tahlil qilish; –turli xil vaziyatlarda Konstitutsiya va huquq normalaridan to'g'ri foydalanish, tahlil qilish, yechimini tanlash.	7
3. Xalqaro huquq asoslari (21–23-savollar)		

O‘zbekiston va xalqaro hamjamiyat	<ul style="list-style-type: none"> –xalqaro huquq normalari va Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatini aniqlay olish; –O‘zbekistonda mahalliy aholi va chet el fuqarolarining huquqiy holatini aniqlay olish; –O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va chet el fuqarolarining huquqlari va burchlarini farqlay olish; –vaziyatlarga mos huquq normalarini to‘g‘ri tanlash, harakatga keltirish, O‘zbekiston va xalqaro hamjamiyat faoliyatini aniqlash va tahlil qilish. 	3
4. Ma‘muriy huquq asoslari (24–25-savollar)		
Ma‘muriy huquq	<ul style="list-style-type: none"> –ma‘muriy huquqiy munosabatlarni aniqlay olish; –ma‘muriy huquqbuzarlik va ma‘muriy javobgarlikni aniqlay olish; –ma‘muriy-huquqiy nizolarni aniqlash va ularni ko‘rib chiqish tartibini topish; –davlat xizmatlarining turlari va foydalanish asoslarini aniqlay olish; –ma‘muriy jazo va uning turlarini topish; –huquqbuzarliklarning oldini olishni aniqlay olish; –kundalik hayotda yuzaga keladigan vaziyatlarga mos qonun normalarini to‘g‘ri tanlash, harakatga keltirish, tahlil qilish. 	2
5. Fuqarolik huquqi asoslari (26–28-savollar)		
Fuqarolik - huquqiy munosabatlari	<ul style="list-style-type: none"> –fuqarolik huquqiy munosabatlarning mohiyati va xususiyatlarini aniqlay olish; –fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlarni aniqlash; –vaziyatlar asosida fuqarolik qonunchiligi normasini to‘g‘ri tanlash, harakatga keltirish; –fuqarolik ishini suda ko‘rish bosqichlarini aniqlay olish; – atamalarni aniqlash, qoidalarni amalda qo‘llash, taqqoslash, sabab–oqibatini topish va dalillarga asoslangan xulosalarni aniqlay olish. 	3
6.Mehnat huquqi asoslari (29–31-savollar)		
Mehnat huquqi	<ul style="list-style-type: none"> –mehnat huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlarni aniqlash va ularning o‘ziga xos jihatlarini farqlay olish; –aholini ishga joylashtirish, mehnat shartnomasini tuzish tartibini bilish; –ish vaqti, dam olish vaqti va mehnatga haq to‘lash tartibini aniqlay olish; –xodim va ish beruvchining huquq hamda majburiyatlarini farqlay olish; –intizomiy, moddiy javobgarlikka tortish asoslari, ayrim toifadagi xodimlarning mehnatini tartibga solish va mehnat muhofazasini to‘g‘ri topish; –ish beruvchi va xodimlar o‘rtasida yuzaga keladigan mehnatga oid nizolarni hal etish tartibini aniqlay olish; –mehnat qonunchiligi bilan tartibga solinadigan vaziyatlarda to‘g‘ri huquqiy yechimni tanlash, tahlil qilish. 	3
7. Oila huquqi asoslari (32–33-savollar)		

Oilaviy - huquqiy munosabatlar	<ul style="list-style-type: none"> –oila huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlarni aniqlay olish; –ularni boshqa huquqiy munosabatlar bilan taqqoslash, farqlash; –nikohni tuzish, tugatish, nikoh shartnomasi, aliment majburiyatlarini aniqlay olish; –er-xotinning oila qonunchiligidagi huquqlari, majburiyatlari, farzandlarning huquqlari va majburiyatlarini aniqlay olish; –vaziyatga mos oila qonunchiligi normasini tanlash, harakatga keltirish, tahlil qilish. 	2
8. Jinoyat va jinoyat protsessual huquqi (34–37-savollar)		
Jinoyat va jinoyat protsessual huquqi	<ul style="list-style-type: none"> –jinoyat va jinoyat protsessual huquqi, kriminologiya bilan bog‘liq ma’lumotlarni farqlay olish; –jinoyat va jinoyat protsessual kodeksi orqali amalga oshiriladigan harakatlarni topish; –jinoyatning tarkibi, turlari va ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlay olish; –jinoyatda ishtirokchilik turlarini farqlay olish; –jinoiy javobgarlikka tortish va jazo tizimini aniqlay olish; –berilgan vaziyatlarda qanday jinoyat tarkibi mavjudligini topish; –vaziyatlarni tahlil qilish va baholash; –faktlarni aniqlash, atamalar va qoidalarni amalda qo‘llash, taqqoslash, sabab–oqibatlarini tahlil qilish va dalillarga asoslangan xulosalarni baholash. 	4
9. Ekologiya huquqi asoslari (38–40-savollar)		
Ekologik huquqbuzarliklar va javobgarlik turlari	<ul style="list-style-type: none"> –ekologiya huquqining mohiyati va maqsadini aniqlay olish; –ekologik huquqbuzarlik va javobgarlikni aniqlay olish; –ekologik huquqbuzarlik va javobgarliklarni boshqa huquqbuzarliklardan farqlay olish; –biologik xilma-xillikni aniqlay olish; –atrof-muhitni muhofaza qilishga oid vaziyatlarda to‘g‘ri huquqiy chorani(yechimni) tanlash. 	3

Kognitiv ko‘nikmalar taqsimoti

3-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish	Fanga doir nazariy ma’lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo‘llanilishini tushunish	20
2	Qo‘llash	Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) kontekstlarda qo‘llay olish	17
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	3

V. Baholash mezoni

Test topshiruvchining umumiy natijasi har bir test topshirig'iga berilgan ballar yig'indisi asosida aniqlanadi. Har bir to'g'ri javob uchun **2 ball**, noto'g'ri javob uchun **0 ball** beriladi. Test sinovining eng yuqori natijasi 80 ballni tashkil etadi.

VI. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi

VI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar*

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi Lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi Lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi Lex.uz.
6. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi Lex.uz.
7. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual kodeksi Lex.uz.
8. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi Lex.uz.
9. O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi Lex.uz.
10. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi qonuni Lex.uz.
11. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolik to'g'risida"gi qonuni Lex.uz.
12. O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchi huquqlari to'g'risida"gi qonun Lex.uz.
13. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020.
14. Davlat va huquq asoslari 8-sinf darsligi. Respublika ta'lim markazi, Toshkent-2024.
15. Davlat va huquq asoslari 9-sinf darsligi. Respublika ta'lim markazi, Toshkent-2024.
16. Davlat va huquq asoslari 10-sinf darsligi. X.Tuychiyeva va boshqalar. Respublika ta'lim markazi, Toshkent-2023.
17. Davlat va huquq 11-sinf darsligi. A. Sodikov, N.Ismatova, J.Bobojonov. Respublika ta'lim markazi, Toshkent-2025.
18. Davlat va huquq nazariyasi darslik. Sh.A.Saydullayev. "Yuridik adabiyotlar publish", Toshkent-2021.

19. Davlat va huquq nazariyasi darslik. X.T.Odilqoriyev. “Adolat”, Toshkent- 2018.

***Izoh:** Davlat va huquq asoslari fani bo'yicha test topshiriqlari normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilgan o'zgarish va qo'shimchalarni inobatga olgan holda shakllantiriladi. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'zgartirish kiritilganda qonunning asl manbayiga murojaat qilinadi. (O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi- Lex.uz. sayti)*

****Eslatma:** test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*